

HARBIY QISMLARDA BAYRAM TADBIRLARI



Harbiy qismlarda bayram tadbirlari

12494 harbiy qismida tashkil etilgan tadbirda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev so'z olib, barcha harbiy xizmatchilarni bayram bilan tabrikladi.

Tadbir jarayonida yosh san'atkrlar o'zlarining qo'shiqlari bilan tadbir ishtirokchilariga katta kayfiyat bag'ishlashdi. "Farishtamoh" bolalar muassasasi jajji o'g'il-qizlarining chiqishlari barchani lol qoldirdi.

Harbiy qismga tuman hokimligi tomonidan qimmatbaho sovg'a taqdim etildi.

Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlash va xalqimiz tinchligini ta'minlashda chegara qo'shinlarining 9208 harbiy qism askar va zabitlarinng hissalarini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu harbiy qismda bo'lib o'tgan tadbirda harbiy xizmatchilarning sharafli va mas'uliyatlari xizmatlari yana bir karra ulug'landi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-14 18:11:56